

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
28	60310500	Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)		+	Iqtisodchi

Yo'nalish tavsifi

Raqamli iqtisodiyot bakalavr yo'nalishi – fan va texnika, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi mutaxassislik bo'lib, iqtisodiyotning barcha soxalarini raqamlashtirish, axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, iqtisodiy tizimni axborotlashtirish, davlat boshqaruvida elektron xujjat almashinuvini raqamlashtirish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi. Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohalarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, davlat va xususiy korxonalar boshqaruvida, davlat korxonalari va xususiy biznes ob'ektlarida raqamli iqtisodiyotni tashkil qilish orqali zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarining imkoniyatlarini kengaytirish, iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini raqamlashtirish, jamiyatdagi barcha iqtisodiyotni tashkil qilishda korxonalarining iqtisodiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish, korxonalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy jihatlarini taxlil qilish, yangi ish o'rinlarini yaratishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, iqtisodiy jarayonlarni tizimli taxlil qilish xamda raqamli iqtisodiyotni huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimini o'rganish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.